

HIKOYADA QAHRAMON PSIXOLOGIYASI**Orazbaeva Asal****Berdaq nomidagi Qoraqolpoq Davlat Universiteti
2-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14163198>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan Xurshid Do'stmuhammadning ijodiy mahorati, yozuvchining uslubi haqida so'z yuritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida yozuvchining "Vasiy" hikoyasi tanlab olingan.

Kalit so'zlar: metafora, illyuziya, psixologik xarakter, badiiy uslub, timsolli ishora.

Hozirgi o'zbek nasrining faol ijodkorilaridan biri Xurshid Do'stmuhammad hisoblanadi. Muallif shu kunga qadar prozaning roman, qissa, hikoya, esse, badia' janrlarida barakali ijod qilish kelmoqda.

Xurshid Do'stmuhammad hikoyalari uslubining o'ziga xosligi, nut texnikasining betakrorligi, metaforalar, allyuziya, timsolli ishoralar, ramzlar, istioralar, o'xshatishlarga boyligi bilan e'tiborni tortadi. Xurshid Do'stmuhammad nasri o'quvchini mudom o'ylantirib, mushohada-mulohaza yuritishga, kitobxonni faol fikrlashga o'rgatuvchi intellektual jihatdan baland ijod.[1] Eng xarakterlisi, Xurshid Do'stmuhammad qay janrda ijod qilmasin, ularda ming yillik islomiy milliy an'analar bilan shaklan modernistik badiiy uslubiy izlanishlar mahsuli qorishib ketadi. Umuman olganda, ijodkorning xoh hikoyasi, xoh qissasimi, xoh romanimi, ularning barchasida yangilikka intilishni ko'rish mumkin. Ijodda yangilik qilish esa hamma ijodkorning ham imkoniyatidagi iroda xohishi emas. Ijodiy o'sish, yangi-yangi uslubiy izlanishlarni yaratish murakkab jarayon. Binobarin yozuvchining o'zi bir suhbatda shunday deydi: "Bir umr o'zining bir xil uslubidan voz kecholmagan, uning iskanjasidan qutila olmagan va shu ishni to'g'ri va ma'qul deb hisoblagan yozuvchi-shoirlar bor. Shaxsan mening qarashlarim sal o'zgacharoq, ya'ni uslub o'zgarmas, dunyoqarash, hayot murakkabliklarini badiiy idrok va ifoda etish yo'sinlari o'zgarmasa, shu yo'lda turfa tajribalarga qo'l urilmasa, bunday yozuvchi nafaqat milliy adabiyotda, loaqal o'z ijodida ham biror yangilik yaratishi amrimahol. Tasavvur qiling, yozuvchi umri mobaynida mingta hikoya yozsa-da, ularning bari bir xil uslubda bo'lsa?! Voqea, syujet, xilma-xil, maqsad, ifoda tarzi esa bir xil. Axir odamlarning har biri alohida bir olam emasmi?! Har bir ruhiy holatga, ruhiy iztirobga yangicha, jilla qursa, o'zgacharoq yondashish mumkinku [2]

Xurshid Do'stmuhammad "Vasiy" hikoyasi orqali inson shaxsining fe'lidagi noqisliklarni, to'g'rirog'i psixologiyasini tasvirlashga harakat qilgan. Hikoyada ramziy tarzda aytilmoqchi bo'lgan axloqiy-falsafiy ma'no ancha teran. Asarda personajning faoliyati, xarakteri, ichki kechinmalari, xulq-atvori, idroki, qobiliyati, tashqi qiyofasi, o'zini tutishi haqidagi ifodalar-muallifning psixologik tavsifidir. Personajlarning psixologik nutqiy xarakteristikasi qahramon obrazi ichki dunyosini ochishning muhim vositasi hisoblanadi. Hikoyadagi kosa-tagida nim kosa tarzidagi badiiy talqinda axloqiy-falsafiy ma'no ancha teran. Qaltis bir qadam, nojo'ya bir og'iz so'z, noma'lum bir kor-hol odamlilik maqomini barbod etishi hech gap emas. Adibning aksar hikoyalaridagi shafqatsiz realizm orqali yuzaga chiqadigan fojeiy ohang yuraklarini zirqiratib yuboradi. Oqibat va xiyonat, mehr va shafqatsizlik, yaxshilik va riyo, oliyjanoblik va munofiqlik singari boqiy masalalar turli xil hayotiy muhit va sharoitlardagi taqdirlar orqali badiiy idrok etiladi.

Yozuvchi ba'zi hikoyalarida voqea yoki qahramoni haqida hamma gapni "chaynab" bermaydi, "qissadan hissa" chiqarmaydi, balki kitobxonga havola qiladi. Mana shunday hech gap yo'qday tuyuladigan asarlaridan biri "Vasiy" hikoyasidir. Kitobxon bu hikoyani bir o'qishda idrok etolmaydi, uni qayta-qayta sinchiklab, mayda detallariga alohida e'tibor berib mutolaa qilinsagina umumiy manzara hosil bo'ladi.

"Inson o'zining haqiqiy mohiyatini faqat qo'rquv holatidagina to'la anglaydi"- deb yozgan ekan faylasuf Syoren K'yerkegor. Bu fikr nisbiy haqiqatdir va insonning hayotida ro'y beradigan oniy qo'rquvlar haqida.[3]

"Vasiy" hikoyasida ayolning qattiq qo'rquv holatidagi ruhiyati tasvirlanganligini ko'rish mumkin. Ayoningl umri davomida psixologik bosimga uchragani yaqqol namoyon bo'lgan. Chunki hovlidagi mayda-chuyda detallar ham uning diqqat - e'tiborini tortadi va u ko'nglidagidek qilmaguncha tinchimaydi. Musichaning tuproqdagi izini tozalashdan tortib romning eng tepasidagi shafaq nuri tushayotgan deraza ko'zini qattiq-qattiq artishgacha boradi. Yostiqni yo'rgaklab go'yo o'z bolasi kabi u bilan suhbatlashadi. Chaqalog'ini kimdir undan tortib oladigandek uni yashirishga tushadi. Uning xayollari chalkash edi. Goh o'zini jinnidek tutsa, goh sog'lom inson edi. Uyni to'zg'itib yana o'ziga kelgach ukasining ko'ziga qaray olmay, yuzini ko'rpa bilan panalab turib gunohkorona va chorasiz bir iztirobda: "Joyingga kirib uxla, ukam. Men tuzukman... Men yaxshi bo'lib qoldim..."[4]-deydi xolos. Hikoyani to'liq o'qish orqali ayolning kimning yoki nimaningdir ta'sirida qattiq qo'rquv holatga tushib qolganini payqash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xurshid Do'stmuhammad asarlarida vazmin va batafsil tasvir uslubi ko'zga tashlanmoqda. Konflikt, ziddiyat zohirdan botinga ko'chmoqda. Ayrim hikoyalarida uchraydigan o'xshatib topilgan bir jumla, yoki tasvir ta'bir joiz bo'lsa, o'quvchining diqqatini tortadi, uning xotirasiga muhrlanib qoladi, badiiy so'zning qudrati, mo'jizasini namoyon etadi.

References:

1. M.Qo'chqorova Xurshid Do'stmuhammad qissachiligida metafora va timsollar 2021 ziyouz.uz
2. X.Do'stmuhammad Xotira va kayfiyat manzaralari/ Beozor qushning qarg'ishi Toshkent: Sharq 2006
3. X.Davron Xurshid Do'stmuhammadni o'qib... www.kh-davron.uz 2008
4. X.Do'stmuhammad Vasiy hikoya Tafakkur 2022.